

“SUV DIPLOMATIYASINING MARKAZIY OSIYODAGI DOLZARBLIGI”

Islamova Zumradhon Odiljanovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi

Diplomatik akademiya, magistranti bitiruvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo respublikalarida suv bilan bog'liq muammolar va uning o'zaro munosabatlaridagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Markaziy Osiyo, suv muammosi, suvga bo'lgan talab, daryolar, suv resurslari.

Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqil davlatlar shakllandi. Shu jumladan, Markaziy Osiyo zaminida Qozog'iston, Tojikiston, Qирг'изистон, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari tarkib topdi. Ularni mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahondagi juda ko'p mamlakatlar, nufuzli tashki lotlar tan olishdi, diplomatik munosabatlar o'rnatishdi. Tarixi, zamini, etnik kelib chiqishi, dini, urf-odatlari, orzu-umidlari, maqsadlari, tabiiy sharoit va resurslari, istiqbol imkoniyatlari bir bo'lgan qozoq, qирг'из, tojik va o'zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari yangi hayot qurishga va bu borada o'zaro hamkorlik, qilishga harakat qilmoqdalar. Markaziy Osiyo davlatlarida umumiylig shu qadar ko'pki, uni birgalikda qarash va birgalikda yechish davr taqazosidir. Hal qilinishi kerak bo'lgan ana shunday masalalardan biri - davlatlar o'rtasidagi suv muammosidir.

Suv muammosi - bu Markaziy Osiyo mamlakatlarining davlat qurilishi va milliy xavfsizligiga oid mavzudir.

Mintaqada suvga bo'lgan talab 1960-yillarda SSSRning paxta sanoatini rivojlantirish uchun qazigan kanal va suv omborlari natijasida kelib chiqdi. Markaziy Osiyoda asosan, suvga bo'lgan talab qishda va yozda ortadi, chunki bu vaqtida paxta hosilini yetishtirishga hamda elektr energiyasiga bo'lgan talab keskin tarzda ko'tariladi. Paxta hosilini yetishtirish uchun juda ko'p miqdorda suv sarflanar, suvni ko'p miqdorda sarflash natijasida daryolarning sathi pasayib, elektr energiyasini ishlab chiqarish miqdori kamayar edi. Bundan sobiq ittifoqning juda katta daryolar va kanallar tizimiga ega bo'lgan mamlakatlari "oqilona foydalanish niyatida" yagona elektr tarmog'i yaratishgan. Yagona elektr tarmog'i orqali esa, katta daryo va kanallarga ega bo'lgan mamlakatlар elektr tokini sotishardi. Bunday elektr ekesporti juda ko'plab SSSR mamlakatlari uchun manfaatli edi. Suvdan foydalanishning sovet strukturasi mezoni maksimal umumiyl unum olishdan iborat bo'lgan. Bunda barcha respublikalar SSSR umumiyl byudjetidan zaruriy kompensatsiyalarini olishardi, lekin ikki tomonlama kelishuv asosida emas, balki umumiyl asosdadir.

Ayni damda, bunday sxemani musatqil Markaziy Osiyo davlatlari tomoni-dan amalga osirishning iloji yo'q. Chunki ularning har birida milliy manfaatlar bиринчи о'rinda turadi. Umumiyl mintaqaviy manfaatlarni o'zaro xizmatlar va kompensatsiyalar taqdim etish yo'li bilan milliy manfaatlarni kelishtirish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu vaziyatda suv muammosi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgani hayratlanarli hol emas.

Daryolarning quyi oqimida joylashgan davlatlarga suvning yetib borishi kuchsizlanib bormoqda. Bu o'z o'rniда paxta yetishtirishga ta'sir o'tkazib, yoz oylarida suv iste'molini pasaytirish majburiyatini hosil qiladi. Shunday ekan, bu davlatlar daryolarning yuqori oqimida joylashgan qo'shnilarining qishda yuzaga keladigan gaz va ko'mir ehtiyojiga beparvolik bilan qaramoqdalar. O'zbekiston o'ziga suvni yuboradigan davlatlarga suv boshqaruvi va nazorati uchun kompensatsiyalar to'lashni, yuqoridagi davlatlar esa kompensatsiya evaziga majburiyatlarni to'laqonli bajarishga uncha xohlamasdan bormoqda.

Mintaqadagi suv iste'molining yuqoriligi ham Orol dengizidagi suv sathining pasayishiga olib keldi. Garchi 1992-yilda suv boshqaruvi bo'yicha xalqaro komisiya tuzilgan bo'lسا-da, u barcha Markaziy Osiyo davlatlarining suv mexanizmlarini samarali boshqarishga erisha olmadi. SSSR qulaganidan keyin yuzaga kelgan boshqa muammolarni ham hisobga olgan holda (chegaralar bo'linishi muammosi, davlatlarning ichidagi beqaror holat va h.k) suv ustidagi kelishmovchiliklar kelajakda mintaqadagi mojarolarga turtki bo'lishi mumkin.

1993-yilda besh mamlakat rahbarlari tomonidan Hukumatlararo Orol kengashi (IASC) va Xalqaro Orolni saqlab qolish fondi (IFAS) tashkil etildi. Shunisi sir emaski, Orolni qutqarish dasturi dastlab katta siljishlarni amalga oshirdi. Ammo keyinchalikmoliyaviy qiyinchiliklar va Orolni qutqarib qolishning imkonini yo'qligiga ishonish tufayli o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Orolni qutqarish dasturidan Qирг'изистон va Тоҷикистон daryoning boshlanish qismida ekanligi tufayli bu rejalgarda jiddiy e'tibor bermay qo'yishdi. IFASning roli shunda bo'ldiki, hukumatlarda suv bo'yicha mas'uliyatli qarorlar qabul qilinishiga erishdi. Buning uchun IFAS ning har bir davlatda qo'mitasi ochildi.

2002-yil sentabrdagi Dushanbe deklaratsiyasida to'rt mamlakat: O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qирг'изистон IFASning suv munosabatlaridagi asosiy rolini e'tirof etdi. Va uni yanada kuchaytirish lozimligi ta'kidlanib, ikkinchi bor Orolni qutqarish rejasiga qadam qo'yilgan bo'lسا-da, 2002-yil avgustda Turkmaniston prezidenti tashkilotni o'z statusini pasayishi tufayli kuchsiz boshqaruvda deb hisobladi.

Qozog'iston transnatsional daryolar va suvdan umumiy energiya konsortsiumi sifatida foydalanish tarafdoi. Bunday yagona chiziqdagi konsortsiumga asos solish g'oyasi 1994-yilda Qozog'iston, Qирг'изистон va O'zbekiston o'rtasida imzolangan "Yagona iqtisodiy hududni yaratish kelishuvi"da o'z aksini topgan. Ammo yagona iqtisodiy zona faqat og'izdagina mavjud bo'ldi. Konsortsium yaratish g'oyasi o'zining mavjudligini yo'qotmadi va Turkmanistondan boshqa davlatlar har bir sammitda ushbu g'oyaga taaluqli deklaratsiyani imzolashda davom etishdi (2002-yil Dushanbeda, 2003-yil Olma-otada).

Avvalo, suv rezervlarini miqdorini hisoblab chiqish lozim, so'ngra ob-havo holatlarining so'nggi yillarda o'zgarishini hisobga olish orqali antropogen omilning daryolar va yer osti suvlariga bo'lgan ta'sirni aniqlash kerak edi. Tomon-lar esa siyosiy, texnik va uslubiy masalalardagi muammolardan xalos bo'lgan holda suv taqsimoti bo'yicha foizlarda ko'rsatilgan kelishuvga erishishi lozim edi.

Aynan, O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari o'zlarining avvalgi pozitsiyasini qayta egallashni istashar edi. Qирг'изистон va Тоҷикистон vakillari esa kvotani qayta taqsimlash uchun har qanday ishga tayyor edilar. Ammo shuni unutmaslik kerak ediki, Amudaryo

masalasida yana bir tomon ham mavjud bo'lib, bu o'zining ichki vaziyatini to'g'irlash bilan ovvora bo'lgan Afg'oniston davlati edi. 1946 va 1958-yillarda Afg'oniston va SSSR o'rtaosida suv munosabatlariga doir bir qancha shartnomalar imzolangan bo'lib, bu davlatga Panj, Qunduz va Amudaryoning boshqa irmoqlaridagi suvdan har yili 9 mln. kub metrlik limitda foydalanishi mumkin edi. O'tmishdagi Afg'onistonda sodir bo'lgan siyosiy voqealar mamlakat shimolida qishloq xo'jaligini barbod qilishi tufayli iste'mol 2 mln. kub metrd an ham oshmadi. Ammo keyinroq Ag'onistonning 7 milliard tonna suvga (Amudaryo suv sig'imining 10%) ega bo'lislis talabi paydo bo'ldi.

"Xalqaro inqiroz guruhi" o'zining "O'rta Osiyo: Suv va mojaro" risolasida "O'rta Osiyoda yetarli darajada suv mayjud va suv taqsimlanishini tizimi kuchsizlangan" -deya qayd etgan. Bu maqolada uzoq davom etgan iqtisodiy inqiroz va suvdan juda ko'p miqdorda foydalanish, hatto texnologik taraqqiy etgan Isroil va Misrda ham yuqori ekanligi qayd etilgan. Mazkur maqolada yana shunday fikr keltiriladi: "Hududni sotsial iqtisodiy rivojlanishini prognozlash zararga olib kelmaydi. Buning uchun ikki muhim ahvolni hisobga olish zarur. Birinchisi, 1988 - 1990-yillardan beri oshgan suv sarfini hisoblash va ikkinchisi Orol dengizining muammolaridir. Orol dengizi suv sathi yiliga 20 kub metrga pasaymoqda".

Shunday vaziyatda, aholining muntazam ravishda ko'payib borayotganligi, ayniqsa, Farg'ona vodiysida suv kamayishini qo'llab-quvvatlamaydi. Suv resurslari defitsitligi esa Qirg'izistonidagi yangi Qambar-Ota kabi suv loyihalari tufayli yanada yomonlashishi mumkin. Endi fikrimizni Jahon banki nashri bo'lgan "O'rta Osiyoda irrigatsiya: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalar" nomli risolaga qaratsak. Bu hujjat hududdagi agrar sektor imkoniyatlariga muhim xulosalar bergen.

Barcha davlatlar uy xo'jaligi asosida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga urinayotgan ekan, suv bo'yicha tejamkorlik kutish juda ham qiyin. Milliy budgetlar esa, suv tejamkorlik texnologiyalarini olib kirishga qodir emas. Shuni ko'rishimiz mumkinki, suvdan foydalanish kvotasida suvning yuqori qismida bo'lgan davlatlar quyi qismida bo'lganlarini faqat xarajat evaziga suv bilan ta'minlashmoqchi ekanligi jiddiy muammodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev G.R. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi // Monografiya. – Toshkent: "METODIST NASHRIYOTI", 2023. – 292 bet.
2. Mirzayev G.R. O'zbekiston va Turkmaniston hamkorligi // Monografiya. – Toshkent "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 178 bet.
3. Mirzayev G.R. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi rivoji va istiqboli tarixidan // O'zMU xabarlari. 2019- yil. 1/3-soni. O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent: 2019. – B. 36- 39. (07.00.00; № 22).
4. Mirzayev G.R. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvida transport kommunikatsiyalarining roli // TDPU ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 2020-yil 1(22)-soni. Toshkent: 2020. – B. 127-133. (07.00.00; № 34).

5. Mirzayev G.R. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligining bugungi holatiga doir / O'zMU xabarlari. Toshkent: 2020- yil 1/1-soni. O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – B. 15-19. (07.00.00; № 22).

6. Mirzayev G.R. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston va Tojikiston hamkorligining o'rni // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. Ilmiy jurnal. 2020-yil 2(47)-soni, Nukus. 2020. – B. 211-215. (07.00.00; №22).

7. Mirzayev G.R. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik: yutuqlar va muammolar // "Imom Buxoriy saboqlari" ma'naviyuma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali. 2020-yil 4-soni. – B. 92-94. (07.00.00; №17).

8. Mirzaev G.R. Economic Cooperation of the Republic of Uzbekistan with the countries of Central Asia: formation, development, and prospects // The American Journal of Social Science and Education Innovations. (ISSN – 2689-100X) Published November 28, 2020. Pages: 283-294. Doi:

<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issuue1-49>

(№ 5 SJIF 2020 = 2,03).